

---

## Murojaatlarning qirqdan ortig'i ijobiy hal etildi

Joriy haftadagi shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, fuqarolik ishlari bo'yicha sud raisi Ulug'bek Oripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimov, majburiy ijro byurosi vakillari va hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

"Yangi soy" MFYdagi istirohat bog'ida o'tkazilgan qabulda 200 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari mas'ullar ishtirokida o'rganildi. Qirq nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga topshiriqlar berildi.

Qabul so'ngida murojaatlarni hal etilishi darajasi tanqidiy tahlil qilindi. Fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal etish yuzasidan shahar hokimligi tomonidan amaliy yordam ko'rsatish belgilandi.

2023-03-29 08:36:36